Annotatsiya. Ushbu maqolada global iqlim o'zgarishi va resurslar cheklanganligi sharoitida O'zbekiston agrosanoat majmuasini raqamli transformatsiya qilish va "Qishloq xo'jaligi-4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari tizimli tahlil qilingan. Agrar tarmoqda kiber-fizik tizimlar, narsalar interneti (IoT), sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan. Tadqiqot doirasida raqamli transformatsiyani boshlovchi va sekinlashtiruvchi omillar to'rt yirik guruhga ajratilgan holda tasniflangan hamda agrosanoat majmuasining universal raqamli platformasi mualliflik konseptual modeli taklif etilgan. Shuningdek, mamlakatimizdagi suv tanqisligi, yerlarning sho'rlanishi va iqlim xavflarini yumshatishga qaratilgan adaptiv, suvni tejovchi va resurs tejamkor raqamli texnologiyalar — mulchalash, agroo'rmonchilik, agrivoltaika, vertikal fermalar samaradorligi iqtisodiy jihatdan baholangan. Maqola yakunida inson kapitali va institutsional infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha strategik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi-4.0, raqamli transformatsiya, kiber-fizik metasistemalar, universal raqamli platforma, iqlim o'zgarishi, suvni tejovchi texnologiyalar, intellektual menejment.

Abstract. This article systematically analyzes the issues of digital transformation of the agro-industrial complex of Uzbekistan and the implementation of the concept of "Agriculture 4.0" in the context of global climate change and resource constraints. The possibilities of using cyber-physical systems, the Internet of Things (IoT), artificial intelligence, and Big Data technologies in the agricultural sector are studied. Within the framework of the study, the factors initiating and slowing down digital transformation are classified into four large groups, and an author's conceptual model of a universal digital platform for the agro-industrial complex is proposed. Also, the effectiveness of adaptive, water-saving, and resource-saving digital technologies — mulching, agroforestry, agrivoltaics, and vertical farms — aimed at mitigating water scarcity, land salinization, and climate risks in our country is economically assessed. At the end of the article, strategic recommendations are developed for the development of human capital and institutional infrastructure.

Keywords: Agriculture 4.0, digital transformation, cyber-physical metasystems, universal digital platform, climate change, water-saving technologies, intelligent management.

Аннотация. В данной статье систематически анализируются вопросы цифровой трансформации агропромышленного комплекса Узбекистана и реализации концепции «Агрокультура-4.0» в контексте глобального изменения климата и ресурсных ограничений. Изучаются возможности использования кибер-физических систем, Интернета вещей (IoT), искусственного интеллекта и технологий больших данных в агропромышленном секторе. В рамках исследования факторы, инициирующие и замедляющие цифровую трансформацию, классифицируются на четыре большие группы, и предлагается авторская концептуальная модель универсальной цифровой платформы агропромышленного комплекса. Также проводится экономическая оценка эффективности адаптивных, водосберегающих и ресурсосберегающих цифровых технологий — мульчирования, агролесоводства, агровольтаники, вертикальных ферм, направленных на смягчение дефицита воды, засоления земель и климатических рисков в нашей стране. В заключение статьи разработаны стратегические рекомендации по развитию человеческого капитала и институциональной инфраструктуры.

Ключевые слова: сельское хозяйство 4.0, цифровая трансформация, кибер-физические метасистемы, универсальная цифровая платформа, изменение климата, водосберегающие технологии, интеллектуальное управление.



KIRISH

Zamonaviy dunyo iqtisodiyoti taraqqiyotining hozirgi bosqichida agrar soha chuqur tarkibiy va texnologik o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Global iqlim o'zgarishi, suv resurslarining keskin kamayishi, tuproq unumdorligining pasayishi va demografik o'sish sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash an'anaviy ekstensiv usullar hisobiga murakkablashib bormoqda. Ushbu global muammolar agrosanoat majmuasini (ASM) izchil modernizatsiya qilishni, ya'ni intellektual va yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi boshqaruv yondashuviga o'tishni taqozo etmoqda. Jahon iqtisodiy tizimi, shu jumladan, O'zbekiston iqtisodiyoti ham bugungi kunda agrar ishlab chiqarishning yangi modeliga o'tish jarayonining boshlang'ich bosqichida turibdi.

Mazkur jarayon nafaqat ishlab chiqarish texnologiyalarining yangilanishini, balki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi hamda qishloq hududlarining rivojlanish paradigmasi transformatsiyasini ham nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi uchun qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning strategik tarmog'i hisoblanib, u mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YIM) qariyb 19,4 foizini shakllantiradi hamda 3,3 milliondan ortiq aholini bevosita muqim ish bilan ta'minlaydi. Biroq respublikaning qurg'oqchil iqlimi, transchegaraviy suv resurslariga bo'lgan yuqori qaramligi va mavjud sug'orish infratuzilmasidagi eskirish darajasi tarmoq barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday sharoitda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, real vaqt rejimida monitoring yuritish va resurslarni optimallashtirish imkonini beruvchi "Qishloq xo'jaligi-4.0" (Agriculture 4.0) konsepsiyasini milliy iqtisodiyotga tatbiq etish yo'llarini ilmiy asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot va sanoat inqiloblarining agrar tarmoqqa ta'sirini o'rganish bo'yicha ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Xususan, Morteza Ghobakhloo o'zining ilmiy ishlarida "Sanoat-4.0" tushunchasini kiber-fizik tizimlarga tayanuvchi ishlab chiqarish modeli sifatida ifodalaydi. Uning ta'kidlashicha, ushbu tizimlar sensorlar, protsessorlar va aloqa modullaridan tashkil topgan dasturiy-apparat majmuasi bo'lib, sun'iy intellekt hamda narsalar interneti (IoT) texnologiyalari asosida muayyan obyekt va jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqarishni ta'minlaydi.

Mazkur yondashuvning agrar sohaga tatbiq etilgan shakli ilmiy manbalarda "Qishloq xo'jaligi-4.0" atamasi bilan yuritiladi. Sara Oleiro Araujo va uning hammualliflari agrar raqamli ekotizimning landshaftini xarakterlar ekan, uning asosiy xususiyati ishlab chiqarishni yuqori darajada individuallashtirish va ishlab chiqarish zanjirlarini tezkor moslashtirish imkoniyati ekanligini isbotlaydilar. Natijada iste'molchining aniq ehtiyojlariga mos parametr va xususiyatlarga ega mahsulotlarni qisqa muddatda ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi. "Qishloq xo'jaligi-4.0" konsepsiyasi ishlab chiqarishni maksimal darajada individuallashtirish tamoyiliga asoslanib, ekin turi bo'yicha umumiy texnologik xaritadan har bir dala kesimidagi xaritaga o'tishni, istiqbolda esa deyarli har bir o'simlikni individual parvarishlash tizimini joriy etishni nazarda tutadi.

Gartner va Deloitte kabi yirik xalqaro konsalting kompaniyalari tahlillariga ko'ra, yaqin yillarda agrosanoat majmuasini raqamlashtirishning ustuvor yo'nalishlari o'simlikchilik va chorvachilikda robotlashtirilgan vositalarni qo'llash, seleksiya va urug'chilikda sun'iy intellektdan foydalanish, energiya ta'minotini optimallashtirish va diagnostika tizimlarini joriy etishdan iborat bo'ladi. Shu bilan birga, iqlim o'zgarishlari bo'yicha hukumatlararo komissiya (IPCC) va Jahon banki hisobotlarida iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatishda raqamli texnologiyalarning o'rni muhim ekanligi alohida qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, faktorli va qiyosiy tahlil, konseptual modellashirish hamda iqtisodiy-statistik baholash metodlaridan foydalanildi. Qishloq xo'jaligida raqamli transformatsiya jarayonlarining boshlanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni o'rganish ularni tizimli ravishda to'rt yirik guruhga ajratish imkonini berdi. Mazkur omillarning o'zaro bog'liqligi va kompleks ta'siri agrar sohada raqamlashtirish ko'lamini va samaradorligini belgilab beradi. Tadqiqot metodologiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Xalqaro amaliy tizimli tahlil instituti hamda Meteoblue meteorologik ma'lumotlar bazasi ko'rsatkichlari qayta ishlanib, ekonometrik tahlillar amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlillar natijasida agrar ishlab chiqarishni raqamlashtirishga ta'sir etuvchi omillar tizimlashtirildi. Birinchi guruh omillari agrar sohaning tarmoq xususiyatlari va shart-sharoitlarini aks ettirib, ishlab chiqarish jarayonlari hamda agrar ishlab chiqarishni boshqarishni raqamlashtirish uchun o'ziga xos, moslashtirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirishi aniqlandi.



Xususan, yer resurslari va biologik obyektlar — qishloq xo'jaligi ekinlari, chorva mollari va parrandalar bilan bevosita o'zaro aloqada faoliyat yuritish boshqaruv obyektlarining holati to'g'risidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash algoritmlarini murakkablashtiradi. Bu esa xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining ko'plab funksional parametrlarini muntazam ravishda aniqlashtirib borishni, shuningdek, yer maydonlari va biologik obyektlarning individual hamda doimiy o'zgarib turuvchi xususiyatlari bilan bog'liq ravishda boshqaruv qarorlarining turli variantlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Qishloq xo'jaligining tabiiy-iqlim omillariga yuqori darajada bog'liqligi xatarlarni (risklarni) minimallashtirishga xizmat qiluvchi, o'zida murakkab tuzilmani namoyon etadigan axborot ta'minoti ekotizimini barpo etishni taqozo qiladi. Ushbu jarayonda agroiqtisodiy tarmoqlarning evolyutsiyasini samarali monitoring qilish va istiqbolni ilmiy prognozlash imkonini beruvchi zamonaviy tahliliy mexanizmlarga ehtiyoj seziladi. Aynan shunday tahliliy vositalar xavf-xatarlar darajasini pasaytirish, ularning ehtimoliy salbiy oqibatlarini yumshatish hamda xo'jalik subyektlarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlovchi eng maqbul boshqaruv dastaklarini tanlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, agroiqtisodiy tizim ishtirokchilarining hududiy jihatdan keng tarqoqligi yuqori tezlikdagi telekommunikatsiya tarmoqlari va axborot infratuzilmasining mukammal bo'lishini talab etadi. Negaki, menejmentning samaradorligi bevosita ma'lumotlarning tezkor almashinuvi hamda axborotning buzilishsiz, aniq yetib borishiga bog'liqdir. Bundan tashqari, agrar ishlab chiqarish sikllarining uzoq muddatliligi va mavsumiyliigi takror ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Turli davriylikka ega tarmoqlar o'rtasidagi proporsiyani saqlash strategik, operativ va taktik boshqaruvni hamda resurslarni taqsimlash mexanizmlarini integratsiya qilishni talab etadi.

Sohada ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishning past darajasi raqamlashtirishni obyektiv ravishda qiyinlashtirmoqda. Intellectual menejment tizimlari yetarlicha shakllanmagan hozirgi sharoitda kompleks raqamlashtirishni, eng avvalo, formalizatsiya qilinishi oson va avtomatlashtirishga tez moslashadigan yo'nalishlardan boshlash iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydi.

Iqtisodiy faoliyatning ko'p tarmoqliligi turfa xil texnologiyalar va ularni ishlatish uchun keng ko'lamli texnik parkni talab qiladi. Bu holat nafaqat moddiy-texnika bazasini yangilash, balki boshqaruv tizimini raqamlashtirish xarajatlarini ham sezilarli darajada oshiradi. Qolaversa, agrar tarmoqdagi aksariyat xo'jaliklarning kichik hajmda ekanligi ushbu jarayonni yanada murakkablashtiruvchi omil hisoblanadi.

Raqamli platformalar ishlashining tayanch asosi raqamli muhit sifati hisoblanadi. Tadqiq etilgan metodologik yondashuvlar va tizimli tahlillar negizida agrosanoat majmuasi ehtiyojlariga moslashtirilgan universal raqamli platformaning mualliflik konseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu model davlat boshqaruvi apparatini raqamlashtirishdan tortib, bevosita ishlab chiqaruvchilarning xo'jalik jarayonlarini maqbullashtirishgacha bo'lgan kesishuvchi raqamli texnologiyalar majmuasini o'zida to'liq namoyon etadi.

Bundan tashqari, mazkur platforma agrar sohada faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlarining qo'shilgan qiymat yaratish zanjirlariga integratsiyalashgan holda turdosh tarmoqlar subyektlari bilan onlayn shaklda samarali hamkorlik qilishini ta'minlaydi. Natijada boshqaruv jarayonlarining shaffofligi va tezkorligi ortadi, resurslardan foydalanish samaradorligi yuksaladi hamda agrar ishlab chiqarish tizimining raqamli muhitdagi barqaror faoliyati ta'minlanadi.

Axborot uzilishlarini bartaraf etish maqsadida agrar ishlab chiqarishni axborotlashtirishning quyidagi ustuvor strategik yo'nalishlari belgilab olinishi zarur:

- Qishloq xo'jaligi texnikalarini mikroprotessorlar va datchiklar (sensorlar) bilan ta'minlash orqali avtomatlashtirish va robotlashtirish;
- Ishlab chiqarish va tashkiliy-iqtisodiy masalalarni yaxlit hal etuvchi platformaviy axborot yechimlarini joriy etish;
- Boshqaruv uchun zarur ochiq axborot resurslarining ko'p funksiyali va sifatli tizimini yaratish;
- Infokommunikatsiya infratuzilmasini va aloqa kanallarini zamon talablariga moslashtirish;
- Elektron tijorat (e-commerce) hamda mahsulot yetkazib beruvchilar va xaridorlar o'rtasidagi axborot kooperatsiyasini takomillashtirish.

Agrosanoat majmuasida raqamli texnologiyalarni joriy etish moddiy mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan an'anaviy modeldan kiber-fizik metasistemalar shakllanishiga o'tishni anglatadi.

Bunda ishlab chiqarish jarayonlari real va virtual muhit integratsiyasi (Digital Twin yoki raqamli egizaklar) asosida tashkil etiladi. "Qishloq xo'jaligi-4.0" sharoitida turli manbalardan katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish, ularni tezkor qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek, yuqori aniqlikka ega ijro mexanizmlari (RTK datchikli traktorlar, avtopilotlar) orqali belgilangan yo'riqnoma va reglamentlarga qat'iy amal qilish talab etiladi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etishni taqozo etadi.

Raqamli transformatsiya natijasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikka e'tibor kuchayadi, ya'ni har bir aniq holat bo'yicha ilmiy asoslangan va minimal zarur ta'sir choralari qo'llash orqali



maksimal samaraga erishish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, jismoniy mehnat ulushi hamda sog'liq uchun noqulay sharoitlarda bajariladigan ishlar bosqichma-bosqich qisqaradi. Natijada mehnat resurslarining ma'lum qismi bo'shab chiqadi, biroq ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulot hajmi va sifati o'sish tendensiyasini namoyon etadi.

Iqlim o'zgarishi zamonaviy qishloq xo'jaligi uchun eng jiddiy global muammolardan biri hisoblanadi. Iqlimiy o'zgarishlarga, ayniqsa, qurg'oqchil iqlim va cheklangan suv resurslariga ega davlatlar, jumladan, O'zbekiston, yuqori darajada ta'sirchan hisoblanadi. Haroratning ko'tarilishi, suv zaxiralarining qisqarishi va tuproq unumdorligining pasayishi sharoitida mamlakat agrar sektorida yangi iqlimiy sharoitlarga moslashish zarurati yuzaga kelmoqda. Meteoblue ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi 45 yil davomida mamlakatimizda o'rtacha yillik harorat 1,5 °C ga oshgan. Ayniqsa, yoz mavsumida issiq to'lqinlari sonining ortishi va yog'in miqdorining kamayishi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Xalqaro amaliy tizimli tahlil instituti tadqiqotlari haroratning oshishi va qurg'oqchilikning kuchayishi bug'doy, paxta, sholi va makkajo'xori kabi asosiy ekinlar hosildorligining kamayishiga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Sug'oriladigan yerlar alohida strategik ahamiyatga ega bo'lib, ularning maydoni taxminan 3 988,5 ming gektarni tashkil etadi. Sug'orish suvlari asosan Amudaryo va Sirdaryo daryolari hisobiga shakllanadi, biroq iqlim o'zgarishi va transchegaraviy hududlarda suv iste'molining ortishi natijasida suv hajmi kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Irrigatsiya tizimlarida suv yo'qotishlari 40–50 foizgacha yetishi mavjud muammoni yanada murakkablashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, sug'oriladigan yerlarning qariyb 45 foizi ikkilamchi sho'rlanishga uchragan, 800 ming gektar maydonda suv eroziyasi, 2 million gektardan ortiq hududda esa shamol eroziyasi kuzatiladi. Buning asosiy sababi — yetarli drenaj tizimisiz intensiv sug'orish amaliyoti natijasida tuproqda tuzlarning to'planishidir. Sho'rlanish va eroziya tuproq unumdorligini pasaytirib, ishlab chiqarish xarajatlarining ortishiga olib keladi.

Qishloq xo'jaligida iqlim o'zgarishlariga moslashish va hosildorlikni barqaror saqlash maqsadida qo'llaniladigan asosiy agronomik va seleksion texnologiyalar tizimi 3.1-jadvalda umumlashtirilgan.

Bunday texnologiyalarni tatbiq etish yer tayyorlash, mos ildiz tizimiga ega ekin navlarini tanlash, stressga chidamli urug'lardan foydalanish, o'g'itlash va agrotexnika amaliyotlarini moslashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga, tuproq namligi sensorlari, ob-havo prognozlar va bug'lanish ma'lumotlaridan foydalangan holda sug'orish tadbirlarini rejalashtirish suv resurslarini boshqarishni takomillashtiradi va ekinlarning hosildorligini sezilarli darajada oshiradi.

1-jadval.

Iqlim o'zgarishlari va degradatsiya jarayonlarining qishloq xo'jaligiga ta'sirini yumshatish texnologiyalari¹

№	Qo'llaniluvchi texnologiyalar	Texnologiyaning mohiyati va qo'llash afzalliklari
1	Iqlimga chidamli qishloq xo'jaligi ekinlari navlari	Harorat o'zgarishi, qurg'oqchilik, kuchli yog'in yoki kasalliklarga bardoshli seleksiya navlarini yaratish va joriy etishga asoslanadi. Ushbu yondashuv hosildorlik barqarorligini ta'minlaydi, ishlab chiqarish xavflarini kamaytiradi.
2	Qishloq xo'jaligi ekinlarini diversifikatsiya qilish	Ekin turlarini hududning tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib ilmiy asosda kengaytirish va almashlab joylashtirishni nazarda tutadi. Diversifikatsiya ishlab chiqarish risklarini taqsimlaydi va tuproq unumdorligini saqlaydi.
3	Ekinlar almashinuvi (sug'oriladigan va lalmi sharoitlarda)	Ilmiy asoslangan almashlab ekish tizimi tuproqdagi oziqa moddalari balansini tiklash, zararkunandalar va kasalliklar tarqalishini kamaytirish hamda eroziya jarayonlarini cheklashga xizmat qiladi.
4	Qurg'oqchilikka va sho'rlanishga chidamli o'simlik navlari	Suv tanqisligi va tuproq sho'rlanishi sharoitida yuqori moslashuvchanlikka ega navlarni joriy etish orqali hosildorlikni saqlab qolish imkonini beradi. Bu usul sug'orish suviga bo'lgan talabni qisqartiradi.

¹ Muallif ishlanmasi.



2-jadval.

Qishloq xo'jaligida suvni tejovchi texnologiyalardan foydalanish xususiyatlari²

№	Qo'llaniluvchi texnologiyalar	Texnologiyaning mohiyati va qo'llash afzalliklari
1	Tomchilatib sug'orish	Sug'orish suvini past bosim ostida o'simlik ildiz zonasiga tomchilab yetkazish tizimi. Bu usul suv sarfini 40–50 foizgacha kamaytiradi, tuproqdagi begona o'tlarni kamaytiradi.
2	Yog'ingarchilik suvini yig'ish	Tomlar, yo'llar va yer yuzasidan oqayotgan yog'ingarchilik suvini maxsus rezervuarlarda yig'ish va saqlash.
3	Tuproq va namlikni masofadan monitoring qilish	Sensorlar, dronlar va sun'iy yo'ldosh tasvirlari yordamida tuproqning namligi, harorati va parametrlarini real vaqt rejimida kuzatish. Fermerlarga sug'orish muddatlarini aniq belgilash imkonini beradi.

Har bir qishloq xo'jaligi ekini uchun iqlim o'zgarishiga moslashish va uning salbiy ta'sirlarini yumshatish variantlari mavjud bo'lib, ular hosildorlikni barqaror oshirish hamda ishlab chiqarishning atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimallashtirish imkonini beradi.

3-jadval.

Resurs tejamkor va raqamli qishloq xo'jaligi texnologiyalari kompleksi³

T/r	Qo'llaniluvchi texnologiyalar	Texnologiyaning mohiyati va qo'llash afzalliklari
1	Mulchalash	Tuproq yuzasiga organik yoki polimer himoyalovchi qoplama yotqizish. Bug'lanishni sezilarli darajada kamaytiradi va begona o'tlar o'sishini to'xtatadi.
2	Agroo'rmonchilik	Qishloq xo'jaligi maydonlari atrofida ihota daraxtzorlari barpo etish. Mikroiklimni yumshatadi va tuproqni himoya qiladi.
3	Regenerativ dehqonchilik	Ekotizimni tabiiy tiklashga qaratilgan yondashuv. Minimal tuproq ishlovi (No-Till) orqali tuproq sifatini yaxshilaydi.
4	Organik qishloq xo'jaligi	Sintetik kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlardan foydalanishni cheklash. Ekologik toza mahsulot yetishtirishni ta'minlaydi
5	Vertikal fermalar	Gidroponika va aeroponika texnologiyalariga tayangan holda yopiq binolarda ko'p qavatli o'simlik yetishtirish tizimi.
6	Agrivoltaika	Quyosh panellarini ekin maydonlari ustiga integratsiyalashgan holda o'rnatish. Yerdan ikki baravar samarali foydalanish.
7	Avtomatlashtirilgan issiqxonalar	Iqlim, mikroiklimat, sug'orish va ozuqa moddalarini sensorlar yordamida inson omilisiz avtomatik boshqarish tizimi.
8	Gidrogel polimerlari	Tuproq ichiga kiritiladigan polimer granulalar suvni o'zida saqlab, o'simlikka sekin beradi. Sug'orishni qisqartiradi.
9	Raqamli qishloq xo'jaligi	Sensorlar, dronlar, avtomatlashtirilgan sug'orish tizimlari orqali agrar menejmentni real vaqtda optimallashtirish.
10	Sun'iy yo'ldosh monitoringi	GIS va kosmik suratlar orqali vegetatsiya jarayonlarini va tuproq sho'rlanishi xaritasini masofadan turib tahlil qilish.

“Qishloq xo'jaligi-4.0” konsepsiyasini joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy to'siqlari

² Muallif ishlanmasi.

³ Muallif ishlanmasi.



O'zbekistonda "Qishloq xo'jaligi-4.0" modeliga o'tish yuqoridagi sezilarli iqtisodiy afzalliklarga ega bo'lish bilan bir qatorda, muhim ijtimoiy-iqtisodiy cheklolarga ham duch kelmoqda.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatganidek, raqamli transformatsiyani sekinlashtiruvchi ikkinchi guruh omillari bevosita inson resurslarining sifati bilan chambarchas bog'liqdir. Qishloq hududlarida yuqori malakali raqamli kadrlarning — agro-informatiklar, GIS mutaxassislari, dron operatorlarining yetarli darajada shakllanmaganligi, umumkasbiy tayyorgarlik darajasining pastligi hamda o'rta maxsus va professional ta'lim tizimidagi bo'shliqlar muhim cheklolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bilan birga, qishloq aholisiga xos bo'lgan o'zgarishlarga tez moslasha olmaslik, ya'ni konservativ an'anaviy tafakkur, innovatsiyalarni qabul qilishga bo'lgan iqtisodiy motivatsiya va qiziqishning pastligi hamda hududlardagi yosh, intiluvchan kadrlarning shaharlarga va xorijga migratsiyasi kadrlar salohiyatining pasayishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamlashtirishning yana bir ijtimoiy jihatdan e'tibor talab qiladigan jihati shundaki, jarayonni to'liq avtomatlashtirish va robotlashtirish oqibatida qishloq hududlaridagi past malaka talab qiladigan ayrim ish o'rinlari qisqarishi mumkin, bu esa davlat hamda biznes tuzilmalari zimmasidagi ijtimoiy yuklama, jumladan, ishsizlik nafaqalari va qayta tayyorlash xarajatlari ortishi ehtimoli mavjud. Biroq ushbu muammo yangi turdagi intellektual xizmat ko'rsatish tarmoqlari hisobiga muvozanatlashtirilishi maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari ko'rsatganidek, O'zbekistonda "Qishloq xo'jaligi-4.0" konsepsiyasini joriy etish mamlakat agrar sektorining barqaror iqtisodiy o'sishini va iqlim o'zgarishlariga chidamliligini ta'minlovchi muhim strategik yo'nalishlardan biridir. Tahlillar asosida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalar shakllantirildi:

- Raqamli transformatsiya jarayonlari to'rt yirik guruh omillari — tarmoq-biologik, inson kapitali, infratuzilma va bozor muhiti ta'sirida shakllanadi. Ularni tizimli boshqarish agrar menejment shaffofligini oshiradi.

- Taklif etilgan universal raqamli platforma konseptual modeli davlat, klasterlar va kichik fermer xo'jaliklari o'rtasidagi axborot uzilishlarini bartaraf etib, yagona integratsiyalashgan ekotizim yaratishga xizmat qiladi.

- Iqlim o'zgarishi sharoitida tomchilatib sug'orish, mulchalash, agrivoltaika va masofaviy monitoring kabi raqamli texnologiyalar majmuasini kompleks qo'llash sug'orish suvi sarfini 40–50 foizgacha tejash bilan birga, sho'rlangan yerlar unumdorligini 20–25 foizga oshirish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatimizda ushbu konsepsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi: agrar oliy ta'lim tizimida "Agroinformatika" va "Aqlli qishloq xo'jaligi muhandisligi" yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlashni tizimli ravishda kengaytirish; fermer xo'jaliklariga raqamli datchiklar va suvni tejovchi uskunalarni sotib olish uchun uzoq muddatli imtiyozli "yashil kreditlar" ajratish mexanizmini joriy etish hamda hududlarda yuqori tezlikdagi mobil internet va ma'lumotlar uzatish (5G/LPWAN) infratuzilmasini bosqichma-bosqich rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ghobakhloo M. Industry 4.0, digitization, and opportunities for sustainability // Journal of Cleaner Production. – 2020. – Vol. 252. – Article 119869. – DOI: 10.1016/j.jclepro.2019.119869.
2. Araújo S.O., Peres R.S., Barata J., Lidon F., Ramalho J.C. Characterising the Agriculture 4.0 landscape: emerging trends, challenges and opportunities // Agronomy. – 2021. – Vol. 11, No. 4. – Article 667. – DOI: 10.3390/agronomy11040667.
3. Deloitte. On solid ground: AgTech is driving sustainable farming and is expected to harvest US\$18 billion in 2024 revenues // Deloitte Insights. – 2023. – Elektron resurs. – Kirish rejimi: <https://www.deloitte.com/us/en/insights/industry/technology/technology-media-and-telecom-predictions/2024/agricultural-technology-predictions.html>
4. IPCC. Climate Change 2022: Impacts, Adaptation and Vulnerability. Working Group II Contribution to the Sixth Assessment Report of the Intergovernmental Panel on Climate Change. – Cambridge: Cambridge University Press, 2022. – Elektron resurs. – Kirish rejimi: <https://www.ipcc.ch/report/ar6/wg2/>
5. World Bank. Food Security Update // The World Bank. – Elektron resurs. – Kirish rejimi: <https://www.worldbank.org/en/topic/agriculture/brief/food-security-update>



6. Gartner. Hype Cycle for Emerging Technologies, 2025 // Gartner Research. – 2025. – Elektron resurs. – Kirish rejimi: <https://www.gartner.com/en/articles/hype-cycle-for-emerging-technologies>
7. Turayev R.A., Toxirov K.N. Masofadan zondlash orqali degradatsiyaga uchragan yerlar monitoringini yuritish usulini takomillashtirish: uslubiy tavsiyanoma. – Toshkent: Publishing High Future, 2025. – 61 b. – O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, "O'zdavyerloyiha" davlat ilmiy-loyihalash instituti.
8. Meteoblue. Climate Change Tashkent // Meteoblue Climate Data. – Elektron resurs. – Kirish rejimi: https://www.meteoblue.com/en/climate-change/tashkent_uzbekistan_1512569
9. International Institute for Applied Systems Analysis (IIASA). Global climate change impacts on crops expected within 10 years // IIASA News. – 2021. – Elektron resurs. – Kirish rejimi: <https://iiasa.ac.at/news/nov-2021/global-climate-change-impacts-on-crops-expected-within-10-years>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>